

**DAVLAT ULUSHIGA EGA BO'LGAN YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR
MA'MURCHILIGI 2024-YIL TAHLILI**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Mustaqil izlanuvchi

Erkaboev Nuriddin Axmadjonovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatda soliq sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlarni takomillashtirishda hududlararo soliq inspeksiyasini o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston soliq tizimida Davlat ulushiga ega bo'lgan amalga oshirilayotgan ayrim muhim islohotlar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq siyosati, soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, hududlararo soliq inspeksiyasi, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish.

So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston soliq tizimida muhim islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar ko'pincha iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, investitsiyalarni rag'batlantiradigan va davlat funksiyalari uchun yetarli daromad yig'ilishini ta'minlaydigan yanada samarali, shaffof va adolatli soliq tuzilmasini yaratish zarurati bilan bog'liq. Soliq tizimidagi islohotlar mamlakatning iqtisodiy manzarasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari, jahon amaliyotida yirik soliq to'lovchilarining soliq ma'murchilagini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, yirik soliq to'lovchilar faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini aniqlash, yirik soliq to'lovchilarga audit va soliq nazoratini qo'llab-quvvatlash majburiyatini to'liq bajarish, nazorat funksiyalarini tarmoqlar

bo'yicha tuzilmalash, qoidalarga birgalikda rioya etish tamoyilini amalga oshirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni to'xtatishning samarali mexanizmini ishlab chiqish masalalarining dolzarbligi ularning yetarlicha nazariy va normativ jihatdan o'rganilmaganligi va zamonaviy iqtisodiy sharoitda yuqori amaliy ahamiyati bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yirik soliq to'lovchilarning soliq majburiyatları ustidan maxsus nazorat o'rnatalgan bo'lib, faoliati muntazam ravishda tahlil qilinadi. Soliq to'lovlarining o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishini ta'minlanlaydi. Soliq ma'murchiligi jarayonlarini soddallashtirish va shaffofligini oshirish maqsadida elektrona hisobot tizimlari v avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmov joriy etilgan. Davlat ulushiga ega bo'lgan ayrim korxonalarga maxsus soliq imtiyozlari v va preferensiyalar taqdim etilishi mumkin.

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq nazorati tadbirlari natijalari:

2024-yilning 12 oyi davomida 771 ta subyektda kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilib (o'tgan yil mos davrida 327 ta 2 724,5 mlrd.so'm), 3386,4 mlrd.so'm qo'shimcha soliqlar hisoblangan. Shuningdek, dekabr oyida 101 ta subyektda kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilib (o'tgan yil mos davrida 20 ta 17,9 mlrd.so'm), 131,6 mlrd.so'm qo'shimcha soliqlar hisoblangan. 2024-yilning 12 oyi davomida 119 ta subyektda sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilib (o'tgan yil mos davrida 39 ta), natijada 2304,6 mlrd.so'mlik tovar moddiy boyliklar tafovuti aniqlangan. Sayyor soliq tekshiruvi natijasida 513,1 mlrd.so'm soliq va moliyaviy jarimalar hisoblangan. Bundan tashqari, dekabr oyida 8 ta subyektda sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilgan (o'tgan yil mos davrida 3 ta), natijada 3,8 mlrd.so'mlik mahsulotlar kamomadi aniqlangan. 2024-yilning 12 oyi davomida 195 ta soliq auditii va jinoyat ishlari bo'yicha taftish tadbirlari tashkil etilib (o'tgan yil mos davrida 217 ta 1051,7 mlrd.so'm), 1004,5 mlrd.so'm qo'shimcha soliq hisoblangan. Jumladan, dekabr oyida 12 ta soliq auditii tadbirlari tashkil etilib (o'tgan yil mos davrida 32 ta 59,2 mlrd.so'm), 130,7 mlrd.so'm qo'shimcha soliq hisoblangan.

O'ta yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq nazorati tadbirlari natijalari:

2024-yil davomida 59 ta subyektda kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilib (o'tgan yil mos davrida 70 ta 1581,6 mlrd.so'm - asosiy qismi "O'ZTRANSGAZ" hamda "OKMK" hissasiga to'g'ri keladi), 359,7 mlrd.so'mlik soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish haqida talabnomalar yuborilgan. Jumladan, dekabr oyida 6 ta subyektda kameral soliq tekshiruvlari o'tkazilib 75,7 mlrd.so'mlik soliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish haqida talabnomalar yuborilgan. 2024-yilning 12 oyi davomida 9 ta subyektda sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilib (o'tgan yil mos davrida 7 ta), natijada 54,1 mlrd.so'mlik mahsulotlar kamomadi aniqlangan. Sayyor soliq tekshiruvi natijasida 17,4 mlrd.so'm soliq va moliyaviy jarimalar hisoblangan. Joriy yilning dekabr oyida o'ta yirik soliq to'lovchilarda sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilmagan va mahsulotlar kamomadi va ortiqchaligi holatlari aniqlanmagan. 2024-yil 12 oy davomida 59 ta soliq auditni tadbirlari tashkil etilib (o'tgan yil mos davrida 71 ta 621,8 mlrd.so'm), 2249,9 mlrd.so'm qo'shimcha soliq hisoblangan. Shunigdek, dekabr oyida 8 ta soliq auditni tadbirlari tashkil etilib (o'tgan yil mos davrida 9 ta 32,2 mlrd.so'm), 1 830,5 mlrd.so'm qo'shimcha soliq hisoblangan.

Yirik soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish borasida yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi yuridik shaxslarni aniqlash mezonlari qayta ko'rib chiqilib, Adliya vazirligida 2024-yil 1-iyulda 3172-3-sod bilan ro'yxatga olindi hamda DSQ buyruqlari bilan jami 957 ta (shundan 60 tasi elektron tijorat asosida faoliyatini amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari hamda holati nofaol (yakuniy va bankrotlik asosida tugatilgan va boshqa korxona tarkibiga qo'shilganlar) bo'lganlar 56 ta) yirik soliq to'lovchilar tarkibi qayta tasdiqlandi. Mazkur yirik soliq to'lovchilarning 691 nafariga Yirik soliq to'lovchilarga ximat ko'rsatish bo'limi tomonidan kuratorlik asosida xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Bo'limga 2024-yilning yakuni bo'yicha jami 13 966,1 mlrd.so'm soliq tushumlari rejasi tasdiqlangan bo'lib, 13 225,0 mlrd.so'mga yoki 95 foizga bajarilishi ta'minlandi. Bundan tashqari, yanvar-dekabr oylarida belgilangan prognoz ijrosini ta'minlash maqsadida yirik soliq to'lovchilarga biriktirilgan

mas'ul hodimlar tomonidan korxonalar bilan hamkorlikda tegishli ishlar amalga oshirildi.

Bo'lim tomonidan budgetga qo'shimcha mablag'larni jalg qilish hamda yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bazasini kengaytirish maqsadida korxonalar soliq hisobotlari muntazam ravishda tahlil qilinib, 2024-yilning IV choragi davomida o'tkazilgan tahlillar natijasida 285,6 mlrd.so'mga qayta hisobotlar olinib, mablag'lar to'liq undirilishiga erishildi.

Xususan, oktabr-dekabr oylarida, dastlabki tahlil natijalariga asosan yirik soliq to'lovchilardan 150,5 mlrd.so'm soliqlar qo'shimcha aniqlanib, bartaraf etilishi yoki asoslantiruvchi hujjatlarni taqdim etilishi yuzasidan xabarnomalar jo'natildi. Shu bilan bir qatorda joriy yilning IV choragida Soliq qo'mitasining tegishli xodimlari bilan hamkorlikda davlat ulushi mavjud bo'lgan 53 ta yirik soliq to'lovchi korxonalarning 2023-yil yakuni bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratma va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanishi hamda budgetga undirilishi yuzasidan moliyaviy va foyda solig'i hisobotlari tahlil qilinib, ushbu korxonalarga 10-iyun kuni xabarnomalar yuborildi. Mazkur yo'nalishda tashkil etilgan ishlar natijasida hozirgi kunga qadar 3 187 358 mln.so'm budgetga undirilishi ta'minlandi.

Yirik soliq to'lovchi korxonalarga biriktirilgan mas'ul kuratorlar tomonidan korxonalar faoliyatida soliq masalalarida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish maqsadida telegram ijtimoiy tarmog'ida gruppalar ochilib, zarur ma'lumotlarni o'zaro tezkor almashish yo'lga qo'yilgan bo'lib, soliq to'lovchilarga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatilib kelinmoqda.

Elektron hujjat almashish axborot tizimi orqali 2024-yil IV choragida korxonalarning 4 078 ta murojaatlari kelib tushgan bo'lib, murojaatlar tegishliligi bo'yicha o'rganilib, har bir korxonaga javob xatlari yuborildi. Telegram, EDO tizimi orqali dekabr oyi davomida korxonalarda mavjud 405 dan ziyod muammolar bartaraf qilindi. Shuningdek, oktabr-dekabr oylarida 310 tadan ortiq korxonaning tovar-transport yuk xati rasmiylashtirilishi bo'yicha savol hamda murojaatlari o'rganilib, kamchiliklar yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagagi "Soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-sonli qarori hamda "YST ma'murchiligi" axborot tizimini ishlab chiqish va sinov tariqasida amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi Soliq qo'mitasining 2024-yil 25-sentabrdagi 302-son buyrug'lari bilan 2024-yilning 1-oktabridan bo'limning faoliyati samaradorligi KPI baxolash tizimi orqali amalga oshirish amaliyoti joriy etildi. Mazkur ATga jami 28 nafar soliq xodimlari biriktirilgan bo'lib, ushbu xodimlarning faoliyati 26 ta mezonlar bo'yicha belgilanadigan 100 balli samaradorlik ko'rsatkichi orqali baholanib ushbu ball tizimi orqali rag'batlantirilmoxda. AT orqali 2024-yil IV choragida bo'lim erishgan o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichi 72 ballni (yaxshi) shundan, oktabr oyida 71 ballni, noyabr oyida 70 ballni, dekabr oyida 74 ballni tashkil etdi. AT mezonlari va ma'murchilik bo'yicha aniqlangan kamchiliklar bartaraf natijasida 2024-yilning oktabr-dekabr oylarida bo'lim xodimlari tomonidan byudjetga jami 2 929,7 mld. so'm (ixtiyoriy taqdim etilgan qayta hisobotlar bilan) soliqlar qo'shimcha hisoblanishida bevosita o'z hissasini qo'shdi.

Xulosa va takliflar.

Soliq ma'murchiligi samaradorligini yaxshilash hamda yangicha yondashuv mexanizmlarini ishlab chiqish yuzasidan quyidagilar taklif etiladi.

Davlat ulushi mavjud korxonalar tomonidan 2023 yil yakuni bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan 5,9 trln so'm dividendning joriy yil 1 avgust holatiga undirilmasdan qolgan 3 trln so'mini byudjetga to'liq to'lanishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, 2023 yil yakuni bilan davlat ulushi mavjud bo'lgan tijorat banklarining ustav jamg'armasini oshirish uchun qoldirilgan 3,1 trln so'mlik dividend to'lovlarini byudjet daromadlari va xarajatlarida aks ettiriladi. Ma'lumot uchun: 2022-2023-yillarda davlat ulushi bor bo'lgan banklar sof foydasi 5,6 trln so'mni tashkil etib, shundan 3,9 trln so'm dividend to'lashi lozim bo'lgan mablag'lardan 243 mld. so'mi byudjetga to'langan hamda 581 mld. so'mi ustav jamg'armasiga yo'naltirilgan. Joriy yil 1 avgust holatiga taqsimlanmagan mablag'lar 3,1 trln so'mni tashkil etmoqda.

Korrupsion holatlar hamda malakali kadrlar qo'nimsizligining oldini olish va xizmat vazifasini sidqidildan bajaradigan xodimlarni rag'batlantirish maqsadida yirik soliq to'lovchilarda o'tkaziladigan soliq nazorati tadbirlari natijasida qo'shimcha undirilgan soliqlarga hisoblangan jarima va penya summasining 40 foizini soliq organlarining maxsus jamg'armasiga o'tkazish taklif etiladi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.